

TA'LIM XIZMATLARI BOZORI VA OLIY TA'LIM MUASSASALARINING RAQOBATBARDOSHLIK KONSEPSIYASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19186698>

Ibroximova Saida Abdurasulovna

Farg'ona viloyat pedagogik mahorat markazi tarix va huquq fani metodisti.

Annotatsiya

Mazkur maqolada ta'lim xizmatlari bozorining zamonaviy tuzilishi va oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik konsepsiyasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ta'lim xizmatlari bozorining o'ziga xos xususiyatlari, uning mehnat bozori bilan o'zaro aloqadorligi hamda oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini belgilovchi omillar ochib berilgan. Shuningdek, global ta'lim makonida O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari, xalqaro reytinglarda o'rnini yaxshilash omillari va innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Maqolada muallif tomonidan oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik darajasini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: *ta'lim xizmatlari bozori, oliy ta'lim, raqobatbardoshlik, ta'lim sifati, innovatsion rivojlanish, mehnat bozori, xalqaro reytinglar, ta'lim marketingi, inson kapitali, strategik boshqaruv.*

Аннотация

В данной статье научно-теоретически анализируются современная структура рынка образовательных услуг и концепция конкурентоспособности высших учебных заведений. Раскрыты особенности рынка образовательных услуг, его взаимосвязь с рынком труда, а также факторы, определяющие конкурентоспособность высших учебных заведений. Также рассмотрены пути повышения конкурентоспособности высших учебных заведений Узбекистана в глобальном образовательном пространстве, факторы улучшения их позиций в международных рейтингах и механизмы обеспечения качества образования на основе инновационных подходов. В статье автором разработаны практические рекомендации, направленные на повышение уровня конкурентоспособности высших учебных заведений.

Ключевые слова: *рынок образовательных услуг, высшее образование, конкурентоспособность, качество образования, инновационное развитие, рынок труда, международные рейтинги, маркетинг образования, человеческий капитал, стратегическое управление.*

Abstract

This article provides a scientific and theoretical analysis of the modern structure of the educational services market and the concept of competitiveness of higher education institutions. The specific features of the educational services market, its relationship with the labor market, and the factors determining the competitiveness of higher education institutions are revealed. Additionally, ways to increase the competitiveness of Uzbekistan's higher education institutions in the global educational space, factors for improving their positions in international rankings, and mechanisms for ensuring educational quality based on innovative approaches are considered. The author has

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

developed practical recommendations aimed at improving the competitiveness level of higher education institutions.

Keywords: *educational services market, higher education, competitiveness, quality of education, innovative development, labor market, international rankings, education marketing, human capital, strategic management.*

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va postindustrial jamiyatga o'tish sharoitida ta'lim xizmatlari bozori har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylanib bormoqda. XXI asrda bilim va innovatsiyalar ishlab chiqarishning asosiy resursi sifatida e'tirof etilishi natijasida ta'lim xizmatlari bozori nafaqat ijtimoiy soha, balki iqtisodiyotning mustaqil tarmog'i sifatida ham rivojlanmoqda. Bugungi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida ta'lim xizmatlari eksporti milliy daromadning muhim manbalaridan biriga aylangan bo'lib, bu borada AQSH, Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada va Germaniya kabi davlatlar yetakchilik qilmoqda. Xalqaro ta'lim bozorining yillik hajmi 300 milliard AQSh dollaridan oshgani bu sohaning iqtisodiy ahamiyatini yaqqol ko'rsatmoqda [1].

Ta'lim xizmatlari bozori va oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini tahlil qilishdan oldin, ushbu sohaning nazariy-metodologik asoslarini aniqlashtirish zarur. Iqtisodiy adabiyotlarda "ta'lim xizmatlari" tushunchasiga turlicha ta'riflar berilgan. Jumladan, V.A.Gnevasheva ta'lim xizmatlarini "inson kapitalini shakllantirish, saqlash va rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy ne'matlar majmui" sifatida tavsiflaydi. L.S.Grebnev esa ta'lim xizmatlarining o'ziga xos xususiyatini ularning nomoddiyligi, saqlanmasligi va iste'mol qilish jarayonida yaratilishi bilan izohlaydi. Ta'lim xizmatlari bozori esa – bu ta'lim xizmatlarini sotib olish va sotish bo'yicha iqtisodiy munosabatlar yig'indisi bo'lib, unda talab va taklif o'zaro ta'sir qiladi. I.Ilinskiy ta'kidlashicha, ta'lim xizmatlari bozori o'zining quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi: birinchidan, ta'lim xizmatlari bozorida sotilayotgan "mahsulot"ning natijasi uzoq muddatli davrda namoyon bo'ladi; ikkinchidan, ta'lim xizmatlarining sifati bevosita iste'molchi (talaba)ning o'z faolligiga bog'liq; uchinchidan, ta'lim xizmatlari bozorida davlatning ishtiroki boshqa bozorlarga nisbatan yuqori bo'ladi [10].

Ta'lim xizmatlari bozorining eng muhim xususiyatlaridan biri uning mehnat bozori bilan chambarchas bog'liqligidir. T.Ibragimov o'z tadqiqotida ta'kidlaganidek, "ta'lim xizmatlari tizimining rivojlanishi va bandlik tuzilmasini o'zgartirish o'rtasida mustahkam bog'liqlik mavjud bo'lib, kadrlar raqobatbardoshligini oshirish va zamonaviy mehnat bozori talablariga moslashishning asosiy vositasi sifatida ta'lim sifati va qulayligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi" [1]. Ta'lim xizmatlari bozori va mehnat bozori o'rtasidagi nomutanosiblik jiddiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan yig'ilishda mamlakat bo'yicha 92 mingdan ortiq oliy ta'lim bitiruvchisi ishsiz ekanligi ta'kidlangan [6]. Bu holat ta'lim xizmatlari bozori va mehnat bozori o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, ta'lim dasturlarini real sektor ehtiyojlariga moslashtirish zaruratini ko'rsatadi.

G'arb mamlakatlari tajribasiga nazar soladigan bo'lsak, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya kabi rivojlangan davlatlarda ta'lim xizmatlari bozori va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning samarali mexanizmlari shakllangan. Jumladan, Germaniyaning dual ta'lim tizimi nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish orqali bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi. M.A.Yunusxodjayev tadqiqotlarida qayd etilishicha, O'zbekiston ta'lim tizimida ham so'nggi yillarda dual ta'lim elementlarini joriy etish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim xizmatlari bozori o'zining ijtimoiy ahamiyati yuqoriligi sababli

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

davlat tomonidan tartibga solishni talab qiladi. V.Kolesov ta'kidlashicha, "ta'lim xizmatlari bozorida davlat ishtiroki nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy omillar bilan ham belgilanadi". Bozor mexanizmlarining "muvaffaqiyatsizliklari" ta'lim sohasida quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi, **tashqi samaralar (eksternaliyalar)** ta'lim nafaqat bevosita iste'molchiga, balki butun jamiyatga foyda keltiradi, **axborot asimmetriyasi** iste'molchilar (talabalar va ularning oilalari) ta'lim xizmatlari sifati to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lmaydilar, **ijtimoiy adolat tamoyili** ta'lim olish imkoniyati fuqarolarning daromad darajasiga bog'liq bo'lmazligi kerak.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim xizmatlari bozorini tartibga solishning huquqiy asoslari "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan. Mazkur hujjatlarda ta'lim xizmatlari bozorining samarali faoliyat yuritishi, davlat va nodavlat ta'lim muassasalarining teng huquqliligi, ta'lim sifatini nazorat qilish mexanizmlari kabi masalalar o'z aksini topgan. Raqobatbardoshlik kategoriyasi an'anaviy ravishda mikroiqtisodiyotda korxonalar va firmalarning bozordagi o'rnini ifodalash uchun qo'llanilgan bo'lsa, so'nggi o'n yilliklarda bu tushuncha ta'lim sohasiga ham faol tatbiq etila boshlandi. F.Yuldashev o'z tadqiqotida ta'kidlaganidek, "oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini belgilovchi omillarni o'rganish va ularni tizimli tahlil qilish bugungi kunda ta'lim iqtisodiyotining dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylangan"[2].

Oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshligi deganda, uning ta'lim xizmatlari bozorida o'z o'rnini saqlab qolish va mustahkamlash, iste'molchilar talabiga javob beradigan sifatli ta'lim xizmatlarini taklif etish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash va innovatsion rivojlanishga erishish qobiliyati tushuniladi. N.Muradova fikricha, "raqobatbardoshlik oliy ta'lim muassasasining ichki va tashqi muhit omillariga moslashish, o'zgaruvchan sharoitlarda barqaror rivojlanishni ta'minlash qobiliyatida namoyon bo'ladi"[5]. Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini baholashda bir qator o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish zarur ta'lim xizmatlarining nomoddiylik va sifatni baholashning murakkabligi, ta'lim jarayonining uzoq muddatlilik va natijaning kechikkanligi, iste'molchilar (talabalar)ning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi, ta'lim muassasasi obro'si va brendining muhimligi, davlat tomonidan tartibga solishning yuqori darajasi. Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarni tizimlashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. M.Q.Pardayev, B.J.Rajabov va boshqa olimlarning tadqiqotlarida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini belgilovchi omillar quyidagi guruhlarga ajratilgan [5]:

Omillar guruhi	Tarkibi	Tavsifi
Ichki omillar	Professor- ituvchilar salohiyati	Ilmiy darajaga ega professor-o'qituvchilar ulushi, ularning malaka darajasi, nashr etilgan ilmiy ishlar soni va sifati
	Moddiy-texnika bazasi	O'quv laboratoriyalari, kutubxona fondi, axborot-resurs markazlari, texnik jihozlanish darajasi
	Ta'lim dasturlari sifati	O'quv rejaları va dasturlarning zamonaviyligi, amaliyot bilan bog'liqligi, xalqaro standartlarga mosligi
	Ilmiy-tadqiqot faoliyati	Ilmiy loyihalar soni, grantlar hajmi, ilmiy nashrlar, patentlar
Tashqi omillar	Xalqaro hamkorlik	Xorijiy universitetlar bilan hamkorlik aloqalari, qo'shma ta'lim dasturlari, akademik mobillik
	Mehnat bozori talabi	Bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi, ish beruvchilarning talabi va fikrlari

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

	Davlat siyosati	Davlat buyurtmasi hajmi, moliyalashtirish mexanizmlari, akkreditatsiya talablari
	Ijtimoiy-iqtisodiy muhit	Mintaqaning rivojlanish darajasi, demografik vaziyat, iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlari
Innovatsion omillar	Raqamlashtirish darajasi	Masofaviy ta'lim platformalari, raqamli boshqaruv tizimlari, elektron resurslar
	Tadbirkorlik faolligi	Startup loyihalar, texnoparklar, biznes-inkubatorlar, innovatsion mahsulotlar yaratish
	Marketing strategiyasi	Brending, ta'lim xizmatlarini ilgari surish, abituriyentlar bilan ishlash tizimi

Xalqaro reyting tashkilotlari (QS, THE, ARWU) tomonidan qo'llaniladigan mezonlar ham oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Jumladan, QS reytingida akademik obro (40%), bitiruvchilarning ish beruvchilar tomonidan tan olinishi (10%), professor-o'qituvchilar va talabalar nisbati (20%), ilmiy nashrlarga iqtiboslar (20%), xorijiy professor-o'qituvchilar (5%) va xorijiy talabalar (5%) ulushi kabi ko'rsatkichlar inobatga olinadi [3].

Globalashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishda bir qator yangi tendensiyalar kuzatilmoqda. Ta'lim xizmatlarining raqamlashtirilishi. N.Muradova ta'kidlaganidek, "innovatsion iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim strategik yo'nalishlardan biri hisoblanadi"[5]. Masofaviy ta'lim platformalari, onlayn kurslar, raqamli kutubxonalar, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim texnologiyalari bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik omiliga aylanmoqda. Pandemiya davrida butun dunyo bo'ylab ta'lim muassasalari raqamli texnologiyalarni joriy etishga majbur bo'ldi va bu jarayon ta'lim sifatiga bo'lgan talablarni oshirdi.

Tadbirkorlik universitetlari konsepsiyasining rivojlanishi. An'anaviy universitetlardan farqli o'laroq, tadbirkorlik universitetlari nafaqat bilim yaratish va tarqatish, balki yaratilgan bilimlarni iqtisodiy qiymatga aylantirish bilan ham shug'ullanadi. Bunday universitetlarda startup loyihalar, texnoparklar, biznes-inkubatorlar faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston mustaqillik yillarida, ayniqsa so'nggi o'n yillikda oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni jahon andozalari darajasiga ko'tarish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. 2016-2024 yillar oralig'ida respublikada oliy ta'lim muassasalari soni 77 tadan 210 taga yetdi, oliy ta'limga qabul kvotasi 4,5 barobarga oshirildi, yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 42 foizga yetkazildi. Bu ko'rsatkichlar O'zbekiston oliy ta'lim tizimining miqdoriy o'sishini ifodalaydi.

B.T.Bayhonov va S.A.Saydullayeva tadqiqotlarida ta'kidlanganidek, "oliy ta'lim tizimini rivojlantirish ko'rsatkichlari tahlilining zamonaviy talqini nafaqat miqdoriy, balki sifat ko'rsatkichlarini ham o'z ichiga olishi lozim" [7]. Shu bois so'nggi yillarda ta'lim sifati, xalqaro reytinglardagi o'rin, ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligi kabi sifat ko'rsatkichlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglarda o'rnini yaxshilash muhim vazifa sifatida belgilangan. Konsepsiyaga ko'ra, 2030-yilga kelib kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (QS, THE, ARWU) reytingining birinchi 1000 taligiga kiritish va respublika oliy ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan xorijiy talabalar sonini kamida 50 ming nafarga yetkazish nazarda tutilgan. 2025-yil aprel oyida Toshkent davlat texnika universitetida

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda QS xalqaro reyting tashkiloti hamkorligida o'tkazilgan seminar-treningda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining global reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashi uchun ilmiy salohiyat, innovatsion faoliyat va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish muhim omil ekanligi ta'kidlandi [3].

Hozirgi kunda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi o'rni hali yetarli darajada emas. QS World University Rankings 2024 reytingida O'zbekistondan bor-yo'g'i bir necha oliy ta'lim muassasasi (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Samarqand davlat universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti) 1201-1400 o'rinlar oralig'ida qayd etilgan. Bu ko'rsatkich qo'shni davlatlar (Qozog'iston, Rossiya) oliy ta'lim muassasalarining natijalaridan ancha past. Xalqaro reytinglardagi past o'rinlarning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin, professor-o'qituvchilarning xalqaro ilmiy nashrlardagi faolligining pastligi, ilmiy maqolalarga iqtiboslar sonining kamligi, xorijiy professor-o'qituvchilar va talabalar ulushining yetarli emasligi, akademik obro' va ish beruvchilar tomonidan tan olinish darajasining pastligi, ilmiy-tadqiqot ishlarining sanoat korxonalarini bilan integratsiyasining sustligi.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish mumkin. Ilmiy salohiyatni oshirish yo'nalishida, professor-o'qituvchilarning xalqaro ilmiy nashrlardagi faolligini rag'batlantirish, nufuzli jurnallarda maqola chop etganlik uchun qo'shimcha moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimini joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmini oshirish, ustuvor yo'nalishlar IT, biotexnologiya, sun'iy intellekt, energetika bo'yicha ilmiy loyihalarni qo'llab-quvvatlash, doktorantura tizimini takomillashtirish, "Research Proposal" asosida qabul jarayonini tashkil etish, doktorantlarning birinchi yildanoq metodologiya, akademik yozuv va statistik tahlil bo'yicha puxta tayyorgarlikdan o'tishini ta'minlash. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yo'nalishida, xorijiy universitetlar bilan qo'shma ta'lim dasturlari sonini ko'paytirish, ikki tomonlama diplom berish amaliyotini kengaytirish, xorijiy professor-o'qituvchilarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish, ularga munosib ish haqi va ijtimoiy sharoitlar yaratish, akademik mobillik dasturlarini Erasmus+, DAAD, TIKKA, Fulbright, Chevening kengaytirish, talaba va o'qituvchilarning xorijiy stajirovkalarda ishtirokini rag'batlantirish. Ta'lim sifatini oshirish yo'nalishida, o'quv dasturlarini mehnat bozori talablariga moslashtirish, real sektor vakillari bilan hamkorlikda o'quv rejalarini ishlab chiqish va yangilab borish, dual ta'lim elementlarini joriy etish, nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish, ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, masofaviy ta'lim platformalari va elektron resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, xalqaro akkreditatsiyadan o'tish jarayonlarini jadallashtirish, ta'lim dasturlarining xalqaro standartlarga muvofiqligini ta'minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ibragimov T. AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA TA'LIM XIZMATLARINING O'RNI // Ilg'or Iqtisodiyot Va Pedagogik Texnologiyalar. – 2025. – №2(3). – B. 527-530.
2. Yuldashev F. OLIY TA'LIM SOHASIDA RAQOBATBARDOSHLIK DARAJASINI OSHIRISHDA INTEGRALLASHGAN INDIKATORLAR YAXLIT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLARI // Raqamli Iqtisodiyot. – 2025. – №7(7). – B. 440-451.
3. Oliy ta'lim tashkilotlarining xalqaro reytinglardagi raqobatbardoshligini oshirish yo'llari muhokama qilindi // O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti. – 2025. – 11-aprel.

Ta'lim jarayonida integrativ yondashuv: nazariya va amaliyotasosida hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish

4. Muradova N. OTM RAQAMLASHTIRISH DARAJASI – INNOVATSION IQTISODIYOTDA RAQOBATBARDOSHLIK OMILI SIFATIDA // Cyberleninka. – 2024.

5. Xoliqov B. Ta'limdagi islohotlar – taraqqiyot asosi // O'zbekiston Milliy axborot agentligi. – 2025. – 12-avgust.

6. Bayhonov B.T., Saydullayeva S.A. OLIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH KO'RSATKICHLARI TAHLILINING ZAMONAVIY TALQINI // Iqtisodiyot va biznes boshqaruvi sohalarida ilg'or tadqiqotlar xalqaro simpozium materiallari. – 2025. – B. 153-160.

7. Fan va oliy ta'lim: Innovatsiyalar va global raqobatbardoshlik yo'lida // O'zbekiston Milliy axborot agentligi. – 2025. – 10-sentyabr.

8. Sherov Q. Qo'shma ta'lim dasturlari: yuksak salohiyatli huquqshunoslarni tayyorlashning zamonaviy modeli // Yangi O'zbekiston. – 2025. – 20-noyabr.

9. Radjabova G.U. TA'LIM XIZMATLARI BOZORI VA UNING TARTIBGA SOLINISHI // Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – №1. – B. 408-413.